

QO‘QON SHOIRLARI HAMD G‘AZALLARIDA G‘OYAVIY-TASVIRIY UYG‘UNLIK

Karimova Nilufar Majidovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Til va adabiyot kafedrasida o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo‘qon shoirlarining hamd va g‘azallarida g‘oyaviy hamda tasviriy uyg‘unlik masalasi tahlil etiladi. Unda diniy-falsafiy qarashlar va badiiy obrazlarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Shoirlarning ilohiy ishq, e‘tiqod va insoniy fazilatlarini ifodalashdagi mahorati yoritiladi. G‘azallardagi badiiy vositalar va ularning mazmun bilan uyg‘unligi misollar asosida ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: hamd, g‘azal, g‘oyaviy uyg‘unlik, tasviriylik, badiiy obraz, ilohiy ishq, diniy-falsafiy qarashlar, poetik uslub, adabiy muhit.

Annotation. This article analyzes the issue of ideological and imagistic harmony in the hamd and ghazals of Kokand poets. It reveals the interconnection between religious-philosophical views and artistic imagery. The poets' mastery in expressing divine love, faith, and human virtues is highlighted. The harmony between artistic devices and meaning in the ghazals is demonstrated through examples.

Keywords: hamd, ghazal, ideological harmony, imagery, artistic image, divine love, religious-philosophical views, poetic style, literary environment.

Аннотация. В данной статье анализируется проблема идейно-образной гармонии в хамдах и газелях кокандских поэтов. Раскрывается взаимосвязь религиозно-философских взглядов и художественных образов. Освещается мастерство поэтов в выражении божественной любви, веры и человеческих качеств. На примерах показано единство художественных средств и содержания в газелях.

Ключевые слова: хамд, газель, идейная гармония, образность, художественный образ, божественная любовь, религиозно-философские взгляды, поэтический стиль, литературная среда.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhiti muhim o‘rin tutadi. XVIII–XIX asrlarda shakllangan ushbu muhit nafaqat siyosiy va madaniy markaz, balki yuksak badiiy tafakkur rivojlangan maskan sifatida ham e‘tirof etiladi. Qo‘qon shoirlari ijodida, xususan hamd va g‘azal janrlarida mazmun va tasvirning uyg‘unligi yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada ana shu uyg‘unlikning mohiyati, uning badiiy vositalar orqali ifodalanishi hamda adabiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ma‘lumki, hamd g‘azallari tahlil va talqiniga bag‘ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar juda kam. Mustaqillik yillarida A. Rustamiy {1;1999}, N. Komilov {2;2005}, R. Vohidov {3;1994}, S. G‘aniyeva {4;2000}, M. Imomnazarov {5;2015}, M. Muhiddinov {6;2005}, I. Haqqul {7;2011}, S. Olim {8;1996}, Sh. Sirojiddinov {9;2011} kabi adabiyotshunoslar tomonidan Navoiy ijodining yangi tahlil va talqinlari dunyo yuzini ko‘rdi. Ammo Qoqon adabiy muhiti doirasida hamd g‘azallar tahlili va talqiniga bag‘ishlangan tadqiqot ishi hali monografik planda o‘rganilmagan. Qo‘qon adabiy muhitining tarixiy-badiiy tavsifi ko‘plab manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bular sirasiga Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” {10;1903} tazkirasi, “Umarnoma” asari, Mushrif Isfaragiyning “Shohnomai Nusratpayom”, Hakimxon

To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Is‘hoqxon Ibratning “Farg‘ona tarixi”, Dilshodi Barnoning “Tarixi muhojiron”, Mirza Olim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin”, Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston” kabi asarlari kiradi. Mazkur tarixiy manbalar ayrim sub‘ektiv-tendensioz jihatlariga qaramay, ularning aksariyati bevosita Amiriy zamon va Qo‘qon adabiy muhitining gullab-yashnagan pallasida yaratilgani yoki shu davr manbalariga asoslangani bilan ahamiyatlidir. XX asrda yaratilgan Qo‘qon adabiy muhitiga oid eng ahamiyatli manba qo‘qonlik tazkiranavis va tarixchi P. Qayumovning “Tazkirai Qayyumiy” asari sanaladi {11;1998}. Qo‘qon adabiy muhitining ilmiy asosda tadqiq etilishining boshlanishi jadid olimlari faoliyati bilan bog‘liq. Abdurauf Fitratning “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash” {12;59-60} , Miyon Buzruk Solihovning “O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash” nomli tadqiqotlarida Amiriy va u asos solgan Qo‘qon adabiy muhitining o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni haqida to‘xtab o‘tilgan. Jumladan, Fitrat: “Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko‘b shoirlar yig‘ildilar. Bular orasida Fazliy, Hoziq, Xijlatxon kabi san‘atda yuqori darajada turganlari bor edi” deb e‘tirof etadi {13;59}.

Istiqloq adabiyotshunosligiga qadar Qo‘qon adabiy muhiti va uning namoyandalari ijodi yuzasidan yaratilgan fundamental tadqiqot akademik A.Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti” (1961) nomli monografiyasidir. Tadqiqot o‘zi yaratilgan davrning hukmron ideologiyasi – sho‘roviy mafkura ta‘siridan xoli bo‘lmasa-da, fakt va ma‘lumotlarga boyligi bois hozirga qadar asosiy ilmiy manbalardan biridir {14;11}.

Shuningdek, N.Jabborov, Q.Pardayev, I.Adizova, N.Muhiddinova, A.Turdialyev, D.Abdullayeva, O.Jo‘raboyev, D.Zohidova, S.Eshonova, A.Dehqonov, A.Muhammadiyev, Sh.Karimova, T.Toshboltayevalarning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodining maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlari yaratildi. {15;2004, 2020, 2021, 1997, 2003, 2006, 2007, 2008, 2018, 2021}

Tadqiqot metodologiyasi. Germenevtik tahlil tadqiqotga chuqur ma‘no qatlamlarini ochish, shoirlarning ilohiy va axloqiy g‘oyalarni qanday badiiy ifodalagani haqida kengroq xulosalar chiqarishga imkon beradi. Falsafiy ham diniy-fiqhiy tahlil – Hamd g‘azallardagi islomiy g‘oyalar, ularning tasavvufiy va axloqiy ma‘nolari, Qur‘on va hadislar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Hamd — Allohni madh etish, Uning qudrati va go‘zalligini ulug‘lashga qaratilgan bo‘lsa, g‘azal esa asosan ishqiy, falsafiy hamda tasavvufiy ruhdagi lirik janrdir. Qo‘qon shoirlari har ikkisini chuqur, mazmunnan boy va rang-barang badiiy tasvir vositalari bilan mohirona uyg‘unlashtira olganlar.

Qo‘qon xonligi davrida adabiyot saroy va xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Ushbu davr shoirlari ijodida: tasavvufiy qarashlar, ishqiy-falsafiy tafakkur, hayotiy kuzatuvlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lgan.

Gʻazallarda koʻpincha yor, may, bogʻ, bulbul kabi obrazlar ishlatiladi. Bu obrazlar tashqi maʼnodan tashqari ichki — tasavvufiy maʼnoga ham ega.

Husning tajallisidin betob mohroʻlar,

Andoqki zohir oʻlmas xurshid chiqsa kavkab {16; 13 b.}.

Nodira gʻazalining ushbu baytida asosiy gʻoya — **Ilohiy goʻzallik (Haq taoloning jamoli)** oldida butun mavjudotning oʻjizligi va hayratga tushishi ifodalanadi. Shoir fikricha, ilohiy husnning zuhur etishi shunchalik qudratli va yorqinki, uning oldida goʻzal yuzlilar ham betob, yaʼni kuchsiz va lol holga keladi. Shoir gʻoyani ilohiy goʻzallikning mutlaq ustunligini juda kuchli koinot obrazlari orqali ifodalaydi. “Mohrular betob boʻlishi” — bu faqat jismoniy holat emas, balki maʼnaviy hayrat va oʻjizlik ramzidir. Quyosh chiqqanda yulduzlarning koʻrinmay qolishi haqidagi tashbeh esa gʻoyani yanada kuchaytiradi.

Quyosh va yulduzlar oʻrtasidagi nisbat orqali insoniy goʻzallikning ilohiy jamol oldida kichrayib qolishi tasvirlanadi. Baytda **gʻoya va tasvir bir-birini toʻldirib**, ilohiy goʻzallikning mutlaq qudratini yorqin badiiy obrazlar orqali ifodalagan. Natijada gʻazal ham maʼno jihatdan chuqur, ham tasviriy jihatdan taʼsirchan boʻlib chiqqan.

Uvaysiy sheʼriyatida “bozor” leksemasi faqatgina maishiy-lugʻaviy maʼno doirasida emas, balki murakkab semantik yukka ega boʻlgan koʻp qirrali badiiy obraz sifatida talqin etiladi. Shoir mazkur obraz vositasida ijtimoiy, maʼnaviy va axloqiy mazmundagi turli gʻoyalarni ifodalashga erishadi. “Bozor” timsoli orqali inson ruhiyati, dunyoviy hirslar, maʼnaviy qadriyatlar hamda hayotiy munosabatlar oʻrtasidagi ziddiyat va uygʻunliklar badiiy aks ettiriladi.

Ayniqsa, ushbu obrazning qoʻllanilishida xalq ogʻzaki ijodiga xos ramziylik va koʻp maʼnolilik yaqqol seziladi. Zero, anʼnaviy folklorida “bozor” nafaqat savdo-sotiq makoni, balki turli insonlar taqdiri, orzu-intilishlari va hayotiy qarashlari toʻqnashadigan ijtimoiy-madaniy maydon sifatida ham talqin qilingan. Uvaysiy ana shu anʼanani davom ettirgan holda, “bozor” obrazini badiiy-falsafiy umumlashma darajasiga koʻtaradi.

Natijada, shoir ijodida mazkur obraz nafaqat voqelikni tasvirlash vositasi, balki inson va jamiyat, moddiylik va maʼnaviyat oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim poetik kategoriya sifatida namoyon boʻladi.

Ishq ramzini kim soʻzladi – lof urdi zaboni,

Savdoiy muhabbat seni bozoringa maxsus. {17; 218 b.}

Uvaysiy ushbu baytining mazmuni shundan iboratki, kimki ishq ramzi va uning asl mohiyati haqida soʻz yuritgan boʻlsa, u aslida haqiqatni emas, balki yolgʻonni aytgan boʻladi. Chunki chin muhabbatning mohiyati faqat “Sening bozoring”ga xosdir. Bu oʻrinda “bozor” soʻzining maʼnosini toʻgʻri anglash muhim boʻlib, u tasavvufdagi “tajalli” gʻoyasi bilan bogʻliqdir. Yaʼni Yaratguvchi oʻz jamolini koʻrish istagida olamni yaratgan, dunyo esa bir bozor singari tasavvur qilinadi. Bu bozorda har bir mavjudot oʻz ehtiyoji, didi va darajasiga mos narsani tanlaydi hamda uni oʻz mulkiga aylantiradi. Doktor Sayyid

Ja'far Sajjodiyning mashhur "Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy" {18; 54 b.} nomli lug'atida bozor so'zi quyidagicha ta'birlanadi: "Bozor – ilohiy nur tajallisi maqomlaridan, bo'linish va ko'plik martabalaridan iboratdir". {18; 180 b.} Shoira g'azalida bozor so'zining irfoniy ma'nosi nazarda tutilgan. Natijada g'azal ma'no va tasviriy jihatdan uyg'unlashgan.

Xulosa va takliflar. Qo'qon adabiy muhitiga mansub shoirlarning hamd g'azallarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu janrlarda g'oyaviy mazmun va badiiy tasvir vositalari o'zaro uzviy uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Hamd janrida ilohiylikni ulug'lash, Allohga muhabbat va tasavvufiy tafakkur markaziy o'rin egallagan bo'lsa, g'azallarda ishqiy va irfoniy g'oyalar obrazlar, ramzlar hamda badiiy san'atlar orqali chuqur va ko'p qatlamli mazmunda ifodalanadi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Qo'qon shoirlari ijodida so'z san'ati faqat estetik vazifa bilan cheklanmay, balki muayyan falsafiy va axloqiy g'oyalarni yetkazish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Soqiy, may, bozor, yor kabi an'anaviy obrazlar yangi ma'no qirralari bilan boyitilib, tasavvufiy talqin asosida qayta ishlangan. Natijada, badiiy tasvir vositalari orqali berilgan g'oyalar yanada ta'sirchan va teran mazmun kasb etadi.

Umuman olganda, Qo'qon shoirlarining hamd va g'azallarida g'oya va tasvir bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro mustahkamlovchi poetik tizimni tashkil etadi. Mazkur uyg'unlik esa o'zbek mumtoz adabiyotining badiiy-estetik qimmatini belgilovchi muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рустамий А. Бисмиллохнинг маъноси. – Т.: Фан, 1999;
2. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005;
3. Воҳидов Р. Навоий ва илоҳиёт. – Бухоро, 1994;
4. Ғаниева С. Навоий насри нафосати. – Т.: ТошДШИ нашриёти, 2000 ;
5. Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. – Т., 2015;
6. Мухиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005;
7. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Т.: Фан, 2011;
8. Олим С. Нақшбанд ва Навоий. – Т.: Ўқитувчи, 1996;
9. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типология, текстология таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011.
10. Фазлий Намангоний. Мажмуат уш-шуаро. – Тошкент, Литотипография, 1903
11. Пўлотжон Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. – Тошкент, 1998
12. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд (Илмий асарлар). – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 59–60
13. Фитрат А. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш / Танланган асарлар. II жилд. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.59.
14. Қайюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Фан, 1961. – Б.11
15. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2004.;
16. Нодира. Ғазаллар. ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти. Тошкент — 1958. 13 б.
17. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
18. Доктор Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Техрон: Афсати гулшан, 1379 х., саҳ.54, 180.